



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 12 - yanvar

30-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Qiziriq tumani “Do‘stlik” mahallasi hududidan Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Qiziriq tumani filialiga “Ma‘muriy” bino qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga hamda Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qaroriga asosan, Qiziriq tumani hokimining 2023-yil 24-oktabrdagi 01-03/455-son hamda Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasining 2023-yil 19-dekabrda 01-05/40-sonli xatlari va “YERELEKTRON” AATga A1722215029/2 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

**Q A R O R    Q I L A M A N:**

1. Qiziriq tumani “Do‘stlik” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidagi 0,15 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Qiziriq tumani filialiga “Ma‘muriy” bino qurilishi uchun Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.
3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.
4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.
5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti

(surxondaryo.uz)da e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimining birinchi  
o'rinbosari**



**A.X.Oripov**